

3rd MAY

2024



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

zenodo

OpenAIRE



digital
object
identifier

OPEN ACCESS

NETHERLANDS

**INTELLECTUAL EDUCATION
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS
AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS**



info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.org



INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

International scientific-online conference

Part 27

MAY 3rd

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

AMSTERDAM 2024



**International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS**



| | |
|---|-----|
| Дилрабо Қувватова Рахима Шарипова ЧҮЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ШАМОЛ ВА БУЛУТ ОБРАЗЛАРИ | 66 |
| Laylo To'rayeva O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI | 76 |
| Umurova Nigina Raximovna Latipova Jasmina "QIZIL VA QORA" ROMANIDA INSON RUHIYATI TALQINI | 85 |
| Латипов Ҳаёт Рамазонович SHARQ ADABIYOTIDA IRFON IFODASI | 96 |
| Normurodov Jamshid Olimov Og'abek JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 108 |
| Niyozova I.N. Murodova Maftuna INTERNET MARKETINGDAN SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI | 115 |
| Bakayeva Mohira Qo`ziyev Diyorbek AHOLINI BANDLIGINI TA`MINLASH VA YANGI ISH O`RINLARI YARATISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ZARURATI | 120 |
| Abdullayeva H.N. Murodov Sardor RAQAMLASHTIRISH- MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI | 125 |
| Anvarova Zarina MAMLAKATIMIZDA SUG'URTA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI | 134 |
| Abdullayeva H Samiyev M. AGROBIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARНИ TAKOMILLASHTIRISH | 140 |
| Чориева Н.К. Равшанов Манучехр МАМЛАКАТИМИЗДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ | 145 |



**International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS**



| | | | | | |
|---|---------|----|-----------|------------|-----|
| ИСЛОХОТЛАР НАТИЖАЛАР | ЖАРАЁНИ | ВА | ЭРИШИЛГАН | ИСТИҚБОЛЛИ | |
| Sharapova Nigina Kadirovna Botirov Bahriiddin BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: YANADA MUSTAHKAM MOLIYAVIY SEKTOR UCHUN STRATEGIYALAR | | | | | 152 |
| Rakhmonov SHukhrat IMPROVING THE BANKING SYSTEM: STRATEGIES FOR A STRONGER FINANCIAL SECTOR | | | | | 160 |
| Niyozova I.N. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING MOHIYATI VA UNING AMAL QILISHI | | | | | 167 |
| Niyozova I.N. Sattorova Mohiya INFLATSIYANING MOHIYATI VA KELIB CHIQISH SABABLARI | | | | | 175 |
| Nigina Sharapova Kadirovna Sharipov Shaxzod KRIPTOVALYUTA - AN'ANAVIY BANK TIZIMIGA VA IQTISODIYOTGA TA'SIRI. | | | | | 182 |
| Ro'zimurodova Zarina Temirov Muxammadali O'ZBEKİSTON IQTISODIYOTIDA XORİJIY INVESTITSİYALARİNG O'RNI | | | | | 186 |
| Toirova Masuma Muhammedrizaevna Shamsiddinov Zafar KICHIK BİZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETINGNING AHAMIYATI | | | | | 193 |
| Umarova Hulkar Umidulloyevna KORXONADA BANKROTLIK RISKLARINI BAHOLASHDA ULARNI TUZILISHI VA TURLARI, KELIB CHIQISH SABABLARI TAHLILI | | | | | 199 |
| M.Po'latova IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISH KO'RSATKICHLARI VA ULARNI XAVO NAMLIGA TA'SIRI. | | | | | 203 |
| Yoqubov Bobur Mamasobir o'g'li . Boymurodov Iskandar Amirqul o'g'li . Eshqurbanov Abdumurod Abdujalil o'g'li . Norqobilov Saydulla Soatmurod o'g'li . TEXNALOGIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHDA | | | | | 207 |



AGROBIZNESDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Buxoro davlat universiteti iqtisodiyot va turizm fakultetini qituvchisi

Abdullayeva H

Buxoro davlat universiteti iqtisodiyot va turizm fakultetitalabasi

Samiyev M

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning obyektiv zaruriyati yoritilgan. Agrar sohadagi biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari hamda taqdim etadigan imkoniyat va afzalliklari ko'rsatilgan. Agrobiznesda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: biznes, agrar soha, agrobiznes, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, modernizatsiya, raqobatbardoshlik, samaradorlik.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi hamda iqtisodiy integratsiyaning tobora tezlashuvi natijasida iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotga o'tish industrial davrdan axborot-texnologik davrining ishlab chiqarish usuliga o'tish bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyotga o'tishning asosiy sababi - industrial iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini qamrab olgan hamda uning miqyosi, dinamikasi va ichki mohiyatini batamom o'zgartirib yuborgan yangi raqamli axborot texnologiyalardir. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, industrial iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyot bilan almashinishi agrardan industrial iqtisodiyotga o'tishga aynan ekvivalent emas, chunki yangi paradigma doirasida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ilm-fan sohalaridagi puxta bilimlar talab qiladigan kompyuter texnologiyalari, raqobatbardosh va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslasha oladigan informatsion tarmoqlar sifatida aniqlanadilar. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot tuzilmasining bunday sifat o'zgarishlari hozirgi kunda global o'zgarish tariqasida ko'rilib, bunda "moddiy" iqtisodiyotdan "intellektual" iqtisodiyotga yoki "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" ga o'tish sifatida tushuniladi.

Raqamli iqtisodiyot - axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o'ziga xos xususiyati bo'lgani iqtisodiyotdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot

texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda".

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu bozor munosabatlariiga asoslangan agrar ishlab chiqarishni rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini shakllantirish, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish, faol tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishdir.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida biznes faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi. Agrobiznes faoliyatining maqsadi - iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzlusiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz agrosanoat majmuasining yetakchi tarmog'i bo'lib, dehqonchilik, choravachilik va mevasabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Keyingi yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshmoqda, ya'ni qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi ortib bormoqda.

Agrobiznes har qanday mamlakat iqtisodiy tizimining muhim elementidir. Chunki Aholining turmush darajasi bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning samaradorligiga bog'liq. Shu sababli qishloq xo'jaligi komplekslarining maksimal samaradorligiga erishish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Agrobiznes - bu faoliyat sohasi bo'lib, unda boshqa sohalar kabi innovatsiyalarni qo'llash juda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmaydi. Bu bir necha omillar, xususan, ko'plab innovatsion loyihalarning yuqori darajadagi talabga javobliligi va moliyaviy mablag'larning yetishmasligi bilan bog'liq.

Tarixda qishloq xo'jaligi ko'plab inqiloblarni boshidan o'tkazdi, ularning har biri samradorlikni ta'minladi. Bozor prognozlari keying o'n yillikda "raqamli qishloq xo'jaligi inqilobi" ni ko'rsatmoqda va bu orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishga hamda yuqori naflilikka ega tovarlar ishlab chiqarishni ta'minlashga yordam beradi.



Raqamli texnologiyalar yaqin kelajakda qishloq xo'jaligining ajralmas qismiga aylanadi: ekinlarni rejalashtirish, sug'orishni avtomatlashtirish va hosilni raqamli modellashtirish va ozuqani hisoblash kabi jarayonlarda ko'rindi. Muxtasar qilib aytganda, raqamlashtirish qishloq xo'jaligi zanjiridagi barcha aloqalarni o'zgartiradi.

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalardan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- boshqaruva samaradorligini oshirish;
- resurstejamkor texnologiyalar, xususan aniq uyalab ekadigan seyalkalar, GPS uskunlari bilan jihozlangan qishloq xo'jaligi texnikalarini qo'llash;
- suv resurslari, o'g'itlardan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi suvtejovchi sug'orish texnologiyalari;
- qishloq xo'jaligiga yangi zamonaviy kasb egalari bo'lgan xodimlarni (mutaxassislarni) jalb etish;
- ma'lumotlar almashinuvining raqamli formatiga o'tish, hisobot turlarini qisqartirish bilan ishtirokchilarining o'zaro va davlat bilan hamkorligi samaradorligini oshirish va boshqalar.
- respublikaning qishloq xo'jaligi quyi tarmoqlari va hududlari kesimida umumfoydalanishga qaratilgan bilim va texnologiyalar bankini yaratish;
- raqobatbardosh, bozor va eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligini shakllantirish;
- oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish va boshqalar.

Mamlakatimizda "Aqli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasida qishloq xo'jaligini raqamlashtirishda mehnat unumdarligini oshirish uchun raqamli qishloq xo'jaligiga o'tish va raqamli texnologiyalardan faol va keng foydalanish; sohada global rejalashtirishni va bozor ishtirokchilariga aniq tavsiyalar taqdim etishni ta'minlash, shu jumladan sun'iy intellektni qo'llash uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar va davlat ma'lumotlari oqimini "Aqli qishloq xo'jaligi" platformasiga integratsiyalash; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining davlat, bank va sug'urta ma'lumotlariga kirishlarining ochiqligini ta'minlaydigan "Aqli qishloq xo'jaligi" platformasi funksiyalarini integratsiyalash; qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etishni qo'llabquvvatlashning mexanizmlarini va choratadbirlarini shakllantirish; turli xil raqamli ochiq platformalarga kirishni



ta'minlaydigan mahalliy ishlanmalarni rag'batlantirish (raqamli maydon, raqamli poda, texnika, issiqxonalarni boshqarish va boshqalar) kabi boshqa vazifalar belgilangan.

Sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mehnat unumdarligi oshadi, tarmoqda innovatsion faoliyat rivojlanib, zamonaviy innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning asosiy natijasi - mavjud biznes modellarini o'zgartirish, mahsulotni yaratish, uni sotishda va xizmatlar ko'rsatishda vositachilarning rolini kamaytirishdir. Mazkur natijalar esa biznes yuritish muvaffaqiyatini ta'minlab, zamonaviy hamda yuqori naflilikka ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloyev, A. (2023). Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
2. Abdullayeva, N. (2023). ACCOUNTING IN ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).
3. Abdulloyev, A. J., & Hasanov, A. A. (2022). QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA KLASTER TIZIMINING AFZALLIKLARI MEXANIZMLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 796-802.
4. Abdullayeva, N. (2023). Innovative Approaches to the Use of Digital Technologies in the Economy. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 27(27).
5. Kadirovna-teacher, S. N. S. N. (2024). THE STATE AS THE MAIN SUBJECT OF INTRODUCTION OF GREEN ECONOMY IN THE REGIONS. STUDIES IN ECONOMICS AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD, 3(5), 40-46.
6. Niyoziyova, I. (2020). Sifrovaya ekonomika razvitiya infrastruktur gosudarstvo. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
7. Niyoziyova, I. (2023). The Reforms Implemented In The Higher Education System Of The Republic Of Uzbekistan And Their Achievement Of Financial Independence. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 38(38).
8. Taирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.



9. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.
10. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).
11. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
12. Navruz-Zoda, L. B., & Navruz-Zoda, Z. B. (2020). Improvement Of Social Prestige Of Entrepreneurial Companies In Bukhara Region. Academy, (3), 37-39.
13. Усманова, А. (2022). The Current State And Analysis Of The Tourist Potential Of The Bukhara Region. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 15(15).
14. Navruz-Zoda, Z. (2023). Development Of Self-Employment Of The Population As A Factor Of Ensuring Economic Stability. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 33(33).
15. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 207-211. 22. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 12(12).
16. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(12), 47-50.
17. Хайрова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития цементной индустрии в Узбекистане. Бюллетень науки и практики, 7(6), 358-362.
18. Сайфуллаева, М. (2023). РАЗВИТИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОГО РОСТА. Nashrlar, 368-371.
19. Qayimova, Z. (2023). Theoretical Aspects of the Development of the Socio-Economic Infrastructure of the Country. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).